

2-TOM, 11-SON

SHIRINMIYA O'SIMLIGI HAQIDA

Abdukarimova D.S., Eshkaraev S.Ch

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti , Termiz sh, Farovon massivi

43 B-uy , I-E-mail: eskaraevsadridin@tues.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolamda dorivor o'simliklar turiga kiruvchi shirinmiya haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shirinmiyani xalq tabobatida qo'llanishi haqida va buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sinoning o'zining davolash amaliyotida qo'llaganligi haqida ham ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari bu o'simlikni ko'paytirish bo'yicha yurtimizda qanday chora tadbirlar ko'rilayotganligi haqida ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Dukkakdoshlar , Saxaroza , Fruktosa, Sil, Xitoy , qog'oz , sanoat.

ABOUT THE LICORICE PLANT

Abdukarimova.D.S Eshkaraev S.Ch

Termiz University of Economics and Service, Termiz city, Farovon massif

43 B-uy, I-E-mail: eskaraevsadridin@tues.uz

Abstract

This article contains information about licorice, which is a medicinal plant. There is also information about the use of Shirinmiya in folk medicine and the fact that our great grandfather Abu Ali ibn Sina used it in his treatment practice. In addition, it was also explained what measures are being taken in our country to increase this plant.

Key words: Legumes, Sucrose, Fructose, Tuberculosis, China, paper, industry.

О РАСТЕНИИ СОЛОДКИ

Абдукаримова Д.С. Эшкараев С.Ч.

Термезский университет экономики и сервиса, г. Термез, Фаровонский массив

43 Б-уй, I-E-mail: eskaraevsadridin@tues.uz

Абстрактный

В этой статье содержится информация о солодке, которая является лекарственным растением. Также имеются сведения об использовании солодки в народной медицине и о том, что наш прадедушка Абу Али ибн Сина использовал ее в своей лечебной практике. Кроме того, также было разъяснено, какие меры принимаются в нашей стране для увеличения этого завода.

Ключевые слова: Бобовые, сахароза, фруктоза, туберкулез, Китай, бумага, промышленность.



2-TOM, 11-SON

Kirish. Shirinmiya, qizilmiya (*Acorus colomus*) dukkakdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik ildiz poyaning begona o't. Poyasi tik, bo'yi 20-30 sm ba'zan 40-150 sm shoxlangan, bazan shoxlanmagan tuklar bilan qoplangan. Ildizi o'q ildiz, shoxlangan, 5-6 m chuqurlikkacha boradi, ildizpoyalarning yer ustki novdalari hosil bo'ladi. Barglari toq patsimon uzunchoq 8-20 sm, gullari qiyshiq (zigomarf), ikki jinsli binafsha rang, shoda to'pguliga yig'ilgan. Meva 3-7 urug'li dukkak urug'i qattiq, mayda silliq, mosh rang, 30-35⁰ C haroratda ko'karadi. Aprelning oxiridan iyungacha gullaydi. Avgustda pishadi. Asosan, Yevropa va Osiyoda tarqalgan. Daryo yoqalarida ariq va zovur bo'ylarida qumloq yerlardan, tog' yon bag'irlarida bazan 2500 m balandlikkacha bo'lgan yerlarda ham va o'rta sho'rlangan tuproqlarda ham o'sadi. Amudaryo, Sirdaryo, Ural va to'qayzorlarda shirinmiya katta maydonlarini egallagan o'tloqzorlarda uchraydi.

Shirinmiya dorivor xususiyati.

Shirinmiya qadimda qimmatbaho dorivor o'simlik sifatida ma'lum. Uning ildizi tarkibida garmonlar faol glitserin, saxaroza, fruktoza, glyukoza, oshlovchi moddalar 30 ga yaqin flavonoidlar va boshqalar bor. Tibbiyotda shirinmiyaning ildizi va ildiz poyasidan tayyorlangan dorilar bilan yallig'lanish, allergiya, zaxarlanish, adison kosshtligi, bod, belangi, bug'ma, sil, chipqon egzema va boshqalar kasalliklar davolaniladi, shuningdek oziq-ovqat kimyo va kon metallurgiyasida sanoatida ham ishlatiladi. Shirinmiyaning poyasi tarkibida ko'p miqdorda oqsil, yog', qand, karotin, vitamin s va boshqalari borligidan qimmatbaho yem xashak hisoblaniladi. Undan yaxshi pichan va silos tayyorlaniladi. O'zbekiston FA "Botanika" ilmiy ishlab chiqarish markazida shirinmiyaning serhosil qurg'oqchilikka va tuproq sho'rlanishiga chidamli shakllari yoritilgan: urug'i va ildizpoyasidan ko'paytirish usullari ishlab chiqarilgan: yiliga 2 marta hosil olish mumkinligi



isbotlangan.



Qizilmiya sanoatida oziq ovqat sanoatida ildizidan kaloriyasiz ichimliklar, qandolatchilik va non mahsulotlari, murabbo, shinni, konserva saqich, tish pastasi hamda boshqalarni tayyorlashda foydalaniladi. Yengil sanoatda rangli bo'yoqlar olinadi. Metallurgiya sanoatida metallarni gidrolizlashda, kimyo sanoatida siyoh tayyorlashda, qog'ozlarga rang berishda qo'llaniladi. Uning chiqindisidan esa qog'ozli termozolyatsiya plitatsiya, qog'oz singari mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin. Shu bois

bugungi kunda ushbu o'simlikka AQSH, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Yaponiya, Germaniya, Vengriya, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa ko'pgina davlatlardan talab yuqori.

Damlama ko'rinishida qo'llaniladi. Damlama tayyorlash uchun 1 osh qoshiq (10g) maydalangan ildizlari sirlangan idishga solinadi, ustidan 1 stakan (200ml) issiq qaynatilgan suv quyiladi va 15 min davomida qaynab turgan suv hammomida qizdiriladi, keyin 45 min davomida xona haroratida sovutiladi, dokadan o'tkaziladi, qolgan hom ashyo siqiladi va damlama hajmi qaynatilgan suv bilan 200 ml gacha yetkaziladi. Olingan damlamani salqin joyda 2 sutkagacha saqlash mumkin.



2-TOM, 11-SON

Tarkibi:

1 osh qosiqdan kuniga 3-4 marta ovqatdan keyin qabul qilinadi. Maydalangan shirinmiya ildizlari shifokor retseptisiz beriladi.

Bu sirop qanday qollaniladi?

Kattalarga kuniga uch marta yarim stakan suvda bir kichik qoshiq preparat aralashtirib ichish tavsiya etiladi. Ikki yoshgacha bo'lgan bolalarga suvga, ular nechchi yoshda bo'lsa, shuncha tomchi (bir yoki ikki tomchi) aralashtirib beriladi. Ikki yoshdan o'n ikki yoshgacha bolgan bolalarga yarim choy qoshiq to'rtidan bir stakan suvda suyultirib beriladi.

Ushbu preparat uning tarkibiy qismlariga yuqori sezuvchanlik mavjud bemorlarga taqiqlanadi. Bundan tashqari, oshqozonning yallig'lanishi va oshqozon yarasidan aziyat chekayotkanlar ham ichmasligi kerak. Homiladorlik davrida siropni ehtiyotkorlik bilan va faqat shifokor bilan oldindan maslahatlashganidan song qo'llash kerak. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarga ham berish tavsiya qilinmaydi.

Xulosa. Shirinmiya nafaqat go'zalligi, balki kop girrali foydaliligi bilan ajralib turadigan o'simlikdir. Tibbiyot va oziq-ovot sanoatidagi ahamiyati, shuningdek, uning tarixiy ma'nosi uni zamonaviy hayotda ham dolzarb qiladi. O'simlikning o'ziga xos xususiyatlari va foydalanish usullari haqida yanada chuqurroq organish, uning kutilmagan foydalari haqida malumot beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.L.Kumin. [<https://www.ndscenter.org/wp-content/uploads/OralMotor.pdf> 2.Resource Guide to Oral Motor Skill Difficulties in Children with Down Syndrome].
- 3.Charles J. Epstein. The Consequences of Chromosome Imbalance: Principles, Mechanisms, and Models. Cambridge University Press [2007-yil].
- 4.Frank J. Domino: — 392-bet.
- 5.<https://mymedic.uz/kasalliklar/daun-sindromi/>
6. Mark L. Batshaw Paul H. Brookes. Children with Disabilities [2002-yil] — 870-bet.

